

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

AJINIYOZ NOMIDAGI
NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

T.T.Saparbaeva

**"PEDAGOGIK QOBILYAT"
MODULINI O'QITISHDA
INTERFAOL TA'LIM METODLARDAN
FOYDALANISH YO'LLARI
(O'quv-uslubiy ko'rsatma)**

NUKUS-2018

Tuzuvchilar: T.Saparbaeva - “Pedagogik qobiliyat” modulini o’qitishda interfaol ta’lim metodlardan foydalanish yo’llari (o’quv-metodik ko’rsatma) 64 – bet

Ko’rsatmaning maqsadi – bo’lajak pedagoglarni va mutaxassislarini pedagogika nazariyasiga oid bilimlar, shu jumladan, ta’lim-tarbiya usullari va pedagogik qobiliyat turlari to’g’risidagi bilim, zarur ko’nikma va malakalarni hosil qildirishdan va qurollantirish, tarbiyaviy ishlarni tashkil etish mahoratini shakllantirishdan iborat. O’quv-metodik ko’rsatma talabalar, magistrantlar, shuningdek, bo’lajak pedagoglarning ta’lim-tarbiya va pedagogik qobiliyat turlari masalalariga qiziqqan barcha kitobxonlarga mo’ljallangan.

MAS’UL MUHARRIR:

A.Nawruzbaeva – Ajiniyoz nomidagi NDPIning pedagogika kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi.

TAQRIZCHILAR:

I.Pirniyazov – Ajiniyoz nomidagi NDPI xuzuridagi XTHQTMOM dotsent, pedagogika fanlari nomzodi.

M.Pazilova – Ajiniyoz nomidagi NDPIning pedagogika kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi.

O’quv-uslubiy qo’llanma Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Ilmiy-o’quv-uslubiy Kengashi (2-aprel 2018-yil, 2-son bayonnomma) qarori bilan nashrga tavsiya etildi.

KIRISH

«*Yoshlar kelajak buniyodkoridir.
Ular ilm fan sohasida bizdan kora
kuchli va aqilliroq bo'lishi shartdir»*

Sh. Mirziyoev.

Jamiyatimizning ma'naviy yangilanishida, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish uchun jahon hamjamiyatiga qo'shilishini ta'minlaydigan demokratik huquqiy davlat qurishda kadrlar tayyorlashning milliy masalasi ustuvor mezon sifatida muhim rol o'yнaydi. SHuning uchun ham O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov: "Inson, uning har tomonlama kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o'zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir"¹, - deb juda to'g'ri aytgan edi. Chunki xalqning boy intellektual merosi va umuminsoniy qadriyatlari asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyaning yangi yutuqlari asosida mukammal tayyorgarlikdan o'tgan kadrlarni tayyorlashning yangi tizimini shakllantirish O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining muhim shartlaridan biri bo'lib qoldi.

Ta'limga ikki tomonlama aloqa (ta'lim olish va ta'lim berish), shaxsni har tomonlama rivojlantirish va boshqa xususiyatlar xosdir. Ta'lim, shuningdek, o'ziga xos xususiyatlarga ham ega. Ta'lim o'qituvchi tomonidan boshqariluvchi o'ziga xos anglash jarayonidir. Ta'lim o'qituvchining o'quvchilar bilan muloqoti jarayoni ham sanaladi. Har qanday ta'lim o'zida o'qituvchi va o'quvchining faoliyati, ya'ni, o'qituvchining o'rgatish hamda o'quvchining o'r ganishga yo'naltirilgan faoliyati, boshqacha aytganda to'g'ridan to'g'ri, bevosita va nisbiy munosabat aks etadi.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni

¹ Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори / Президент Ислом Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси IX сессиясида сўзлаган нутки. – Туркистон г., 1997 йил 30-август. 17-бет

o'quvchilarga etkazib berish asosida ma'lum faoliyat, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularning faoliyatini nazorat qilish, egallangan nazariy va amaliy bilimlar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahoratni, ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarining o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llashga doir katta tajriba to'plangan bo'lib, bu tajriba asosini interfaol metodlar tashkil etmoqda.

Interfaol metodlar – ta'lim oluvchilarining bilim, ko'nikma, malaka va axloqiy sifatlarini o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikda harakat qilishlarini ta'minlovchi metodlar hisoblanadi. Bu turdag'i metodlarning asosini interfaollik tashkil etadi.

Interfaollik ta'lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko'nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga ega bo'lishlari demakdir.

Bu turdag'i metodlar o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim oluvchilarda o'quv-bilish faolligini oshirish, ularni kichik guruh va jamoada ishlash, o'rganilayotgan mavzu, muammolar bo'yicha shaxsiy qarashlarini dadil, erkin ifodalash, o'z fikrlarini himoya qilish, dalillar bilan asoslash, tengdoshlarini tinglay olish, g'oyalarni yanada boyitish, bildirilgan mavjud mulohazalar orasidan eng maqbul echimni tanlab olishga rag'batlantirish imkoniyatiga egaligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ta'lim va tarbiya jarayonida o'qituvchi (pedagog)lar tomonidan interfaol metodlardan o'rini, maqsadli, samarali qo'llanilishi ta'lim oluvchi (o'quvchi, talabalar)da muloqotga kirishuvchanlik, jamoaviy faoliyat yuritish, mantiqiy fikrlash, mavjud g'oyalarni sintezlash, tahlil qilish, turli qarashlar orasidagi mantiqiy bog'liqlikni topa olish qobiliyatlarini tarbiyalash uchun keng imkoniyat yaratadi.

"Pedagogik qobiliyat" modulini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish imkoniyatini aniqlash.

Modulni o'qitish jarayonida talabalarga interfaol metodlar to'g'risida ma'lumot berish.

1. Talabalarni interfaol metodlarning o'qitish imkoniyatlaridan xabardor qilish.
2. Talabalarni ta'lim jarayonida interfaol metodlarni qo'llashga o'rgatish.

3. Talabalarda ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish ko'nikma, malakalarini shakllantirish.

4. "Pedagogik qobiliyat" modulini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari.

"Pedagogik qobiliyat" modulini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish jarayoni.

"Pedagogik kobiliyat" modulini o'qitishda interfaol metodlardan samarali foydalana olish quyidagilarni kafolatlaydi:

1. Talabalar interfaol metodlar va ularning mohiyatidan xabardor bo'ladi.

2. Talabalar ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanishni o'rghanadi.

3. Talabalarda ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish ko'nikma va malakalari shakllanadi.

“PEDAGOGIK QOBILIYAT” MODULINI O’QITISHNING NAZARIY MASALALARI

“Pedagogik qobiliyat ” fani taraqqiyotining ustuvor yo’nalishlari

Pedagogika sohasi mavjud sharoitda O’zbekiston Respublikasining uzlusiz ta’lim tizimi, yo’nalishlari, o’quv yurtlarida amalga oshirilayotgan pedagogik jarayonni qamrab oladi. Nopedagogika oliy o’quv yurtlarida pedagogik maxorat” fanining o’qitilishi yo’lga qo’yilgan bo’lib, ularda sohaning umumiylasoslarini, metodologiyasi, ustuvor tamoyillari, pedagogik jarayonni muvaffaqiyatli tashkil etish shartlari, samarali shakl, metod va vositalariga oid bilimlar yoritiladi. Fan asoslarining talabalar tomonidan puxta o’zlashtirilishiga erishishyuqori malakali o’qituvchilarni tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

“Pedagogika” fanining umumiylasoslarini yashash, terib-terma kun kechirishga asoslangan ibtidoiy tuzumda kattalar tajribasini yoshlarga o’rgatishga qaratilgan amaliy harakatlardan boshlab, to bugungi kun – axborot asriga qadar bosib o’tilgan insoniyat tarixiy taraqqiyotini ifodalovchi ma’rifiy va tarbiyaviy g’oyalar negizida shakllangan. SHu sababli, ularni puxta o’rganish pedagogika kollejlari o’quvchilari, oliy o’quv yurtlari talabalari tomonidan bo’lajak mutaxassis sifatida kelgusida kasbiy faoliyatni samarali tashkil etish, ta’lim-tarbiya sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirish, har tomonlama kamol topgan shaxsni tarbiyalashga erishish imkoniyatini yaratadi.

Mavjud sharoitda mustaqil O’zbekistonda ham barcha sohalarda tub islohotlar boshlandi. Bu islohotlarning barchasi inson omilini har qachongidan ham yuqori saviyaga ko’tarib, uning kuchi, idroki, salohiyati, ruhiy hamda ma’naviy barkamolligini bevosita taraqqiyot, rivojlanish va tsivilizatsiya bilan uzviy bog’ladi. Bundan inson va uning mukammalligi, o’z ustida ishlashi, o’z mukammalligi xususida qayg’urishi muammozi har qachongidan ham dolzarb masalaga aylandi.

O’zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning ikkinchi chaqiriq O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining to’qqizinchi sessiyasi (2002 yil 31 avgust)dagagi “O’zbekistondagi demokratik o’zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo’nalishlari” mavzuidagi ma’ruzasida ettinchi ustuvor yo’nalish sifatida barcha islohotlarning pirovard natijasini belgilab beradigan inson omili va mezoni ekanligi alohida qayd etib o’tilgan.

“Pedagogik maxorat” fanining nazariy asoslar ta’lim jarayonini tashkiliy, metodik jihatdan to’g’ri tashkil etish, talabalarni o’qitishda ilg’or pedagogik texnologiyalarni qo’llash, talabalarning o’quv-bilish faoliyatini faollashtirish, ular tomonidan chuqur bilimlarni o’zlashtirish imkoniyatini yaratish imkoniyatini bildiradi.

Zamonaviy ta’limda sifat tizimini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish ham

ustuvor ahamiyat kasb etadi. Sifat g'oyasi ta'lim tizimining barcha tarkibiy qismlari va darajalari uchun birdek taalluqli hamda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Sifatni baholash ta'lim tizimining moddiy-texnik ta'minoti, kadrlar bilan ta'minlanganligi, ta'lim dasturlarining mavjudligi, o'quv-me'yoriy hujjatlar to'plamining yaratilganligi va boshqa elementlarini qamrab oladi.

“Sifat” atamasi mustaqil metodologik tushuncha sanaladi. Natijaning qo'yilgan maqsadga moslik darjasini “sifat” tushunchasi bilan ifodalanadi. Sifat haqida so'z borganda maqsadga muvofiqlik nazarda tutiladi. Ko'zlangan maqsadga erishilganlik, tayyor mahsulotning mavjud me'yoriy hujjatlar hamda iste'molchilariga qanchalik mos kelishi, muvofiqligini aniqlash uchun “Maqsad nima?”, “Maqsad natijalandimi?”, “Tayyor mahsulot mavjud me'yoriy hujjatlar hamda iste'molchilariga mos keldimi?” kabi savollarga javob topish talab qilinadi.

“Ta'lim sifati” tushunchasi jarayonning holati, natjaviyligini tavsiflashiga, ta'limning ijtimoiy-me'yoriy maqsadlarga mosligini ifodalashga xizmat qiladi.

Ta'lim tizimida “sifat” tushunchasi: ta'lim xizmati, bitiruvchi (ya'ni, mahsulot)ning yaroqliligi; ta'lim xizmatini ko'rsatishda rejalashtirilgan maqsadga erishilganlik; pedagogik faoliyat, ta'lim xizmatini ko'rsatishning takomilga etganligi, samaradorlikning ta'minlanganligi kabi holatlar to'g'risida ma'lumot beradi.

“Sifat” tushunchasi odatda xizmat ko'rsatuvchi va iste'molchi tomonidan nisbiy va absolyut tushuncha sifatida sharhlanadi. Tushunchaning nisbiy yoki absolyut ekanligi o'z navbatida xizmat ko'rsatuvchi va iste'molchining yondashuvini ifodalaydi.

Mazmuniga ko'ra “ta'lim sifati” tushunchasi quyidagi holatlar ifodalaydi:

- 1) belgilangan maqsad, mavjud ehtiyoj, iste'molchilariga talablariga javob berib, me'yoriy hujjatlar ko'rsatmalariga mos keladigan ta'lim xususiyati;
- 2) Davlat ta'lim standartlari, ijtimoiy buyurtma talablariga muvofiq tayyorlangan ta'limiy mahsulot yoki xizmatlarning yaroqlilik darjasini;
- 3) ta'lim xizmatini tashkil etish orqali olingan natijaning maqsadga, mavjud ijtimoiy-me'yoriy talablarga mos (mos emas)ligi, muvofiq (yoki nomuvofiq)ligi.

Ushbu tushuncha negizida quyidagi holatlar anglanadi: o'qitish sifati (o'quv jarayoni, pedagogik faoliyat); ilmiy-pedagogik kadrlar sifati; o'quv dasturlarining sifati; moddiy-texnik asos, axborotli ta'lim muhitining sifati; talaba sifati; ta'limni boshqarish sifati; ilmiy tadqiqotlar sifati va boshqalar.

Mohiyatiga ko'ra “ta'lim sifati” tushunchasi ijtimoiy-pedagogik kategoriya sanaladi. Oliy ta'lim muassasasi tomonidan ko'rsatilayotgan ta'lim xizmati sifatini baholashda bu jarayonda bevosita ishtirok etuvchi sub'ektlar (ta'lim beruvchilar va ta'lim oluvchilar) hamda homiyalar (ota-onalar, ijtimoiy institutlar, buyurtmachi – ish beruvchilar)ga munosabatning ochiqlik, oshkorlikka tayanishi talab etiladi. Bu esa

o’z-o’zidan ta’lim xizmati sifatini belgilovchi asosiy omillarni belgilash, shakllantirish borasida o’zaro kelishib va tasdiqlab olishni taqozo etadi.

Pedagoglarning ta’lim jarayonini tashkil etishdagi mahoratlari, yuqori kasbiy malakasi, ijodkorligi, o’z ustida doimiy ishlashi, izlanishi, talabalarning ta’lim olishga bo’lgan qiziqish, ehtiyoj va ijobiy munosabatlari, ta’lim sharoitlari (Oliy ta’lim muassasasining moddiy-texnik ta’minoti, bilimdon, o’z kasbining ustasi bo’lgan, mahoratli kadrlar bilan to’liq ta’minlanganligi, ta’lim jarayonining ilg’or pedagogik texnologiyalar yordamida tashkil etilishi, boshqarishda demokratik va insonparvarlik tamoyillarining ustuvor o’rin tutishi, pedagog va o’quvchi (talaba)lar o’rtasidagi o’zaro hamkorlikka asoslangan ijobiy munosabat, ta’lim muassasasida qaror topgan sog’lom ijtimoiy-ma’naviy muhit va boshqalar)ta’lim sifatini ta’minlovchi muhim omillardan hisoblanadi.

Boshqacha aytganda, ta’lim sifati tushunchasi oliy ta’lim muassasasining bitiruvchisi va uning tayyorgarlik darajasini ifodalaydi. Har bir ob’ekt o’z xususiyatiga ega bo’lgani kabi bitiruvchi ham nafaqat sifat, balki miqdor ko’rsatkichlarga ega bo’lishi zarur.

Pedagogikada, shuningdek, “ta’lim jarayonining sifati” tushunchasi ham ishlatalidi. Xo’sh, ta’lim jarayonining sifati nima?


V.P.Panasyukning ko’rsatishicha, ta’lim jarayonining sifati:

- 1) majmuaviylik;
- 2) aniq maqsadga yo’naltirilganlik;
- 3) muvofiqlashtirilgan o’zaro ta’sir jarayonining holati bilan aniqlanadi.

Ta’lim sifatini belgilashda ikki muhim asos alohida o’rin tutadi. Ular iste’molchilar tomonidan qo’yiladigan ijtimoiy talab hamda huquqiy-me’yoriy hujjatlar, Davlat ta’lim standartlarida o’z o’rnini topadigan me’yoriy talablardir. Agarda ijtimoiy talabning qondirilishi bitiruvchi malaka darajasining e’tirofi bilan belgilansa, me’yoriy talablarning qondirilganligi attestatsiya (davlat imtihoni) ko’rsatkichlari bilan tasdiqlanadi.

Ta’lim sifatiga erishishda unga nisbatan ijtimoiy va me’yoriy talablarning mohiyatini anglab olish maqsadga muvofiqdir. Zamonaviy sharoitda ta’lim sifatiga nisbatan quyidagi ijtimoiy va me’yoriy talablar qo’yilmoqda. Ular:

Jarayon va natija tarzida ta'lim sifatini anglatuvchi belgilar




Ta'lim sifati doimiy, turg'un xususiyatga ega emas. Uning holati ro'y beradigan ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va texnik-texnologik o'zgarishlarga muvofiq ravishda doimiy ravishda o'zgarib boradi.

Har bir oliy ta'lim muassasasi uchun ta'lim sifati ko'rsatkichlari o'ziga xoslik kasb etadi. Bu ko'rsatkichlar tegishli muassasada shaxsni o'qitish, tarbiyalash yoki kadrlarni tayyorlash borasidagi maqsad, vazifalar, ta'lim mazmuni, kadrlar ta'minoti, ilmiy-metodik ta'minlanganligi va o'qitish sharoitlarini o'zida ifodalovchi modelga mos keladi. Shu bilan birga ta'lim sifati ko'rsatkichlari davlat ta'lim standartlari va ijtimoiy buyurtmaning bajarilishi darajasidagi natijalar sifati bilan aniqlanadi. Shunga ko'ra ta'lim sifati ko'rsatkichlari uzliksiz ta'lim tizimining muayyan bosqichida faoliyat olib borayotgan muassasalarning barchasi uchun birdek mos keladi.

Ayni vaqtida xalqaro ta'lim amaliyoti ta'lim sifatini boshqarishda sifat holatini aniqlovchi bir guruh ko'rsatkichlarga ega. Mavjud ko'rsatkichlarni ularning mohiyatidan kelib chiqqan holda quyidagi tizim jamlash mumkin:

Xalqaro ta'lim amaliyotida qo'llaniladigan ta'lim sifatini boshqarish ko'rsatkichlari tizimi



Ta'lim sifatini baholash, shuningdek, ta'lim sifatini baholashda muassasa rahbarining kasbiy mahorati, tashkilotchiligi, jamoani uyuştira olishi, pedagogik faoliyatning innovatsion xususiyat kasb etishiga erishish, ta'lim jarayonini ilg'or, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlash, ta'lim muassasasini boshqarish tizimi, tuzilmalarining har birida tegishli faoliyatni tashkil etilishida unga oqilona rahbarlik qilishi muhim ahamiyatga ega. Pedagogikada ta'lim muassasining rahbar qiyofasida ta'lim sifatini ta'minlashdagi liderligini belgilovchi bir qator ko'rsatkichlar qayd etilgan.

Zamonaviy sharoitda pedagogika fanining ustuvor yo'nalishlari sifatida quyidagilarni qayd etish zarur:

1. Oliy ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan ta'lim jarayoni tizimini jahon ta'limi standartlari darajasiga ko'tarish.
2. Ta'lim jarayonida rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'limi amaliyotida qo'llanilayotgan ilg'or tajribalar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan yaqindan tanishgan holda ularni respublika oliy ta'lim muassasalari faoliyatiga tatbiq etish.
3. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning o'quv-bilish faolligini oshirishga erishishda yangi imkoniyatlarni yaratishga e'tibor qaratish.
4. Respublika oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini samarali tashkil etish borasida to'planayotgan ilg'or tajribalarni ommalashtirish, "Mahorat darslari"ni tashkil etish.
5. Uzluksiz ta'limning barcha bosqichlarida bo'lgani kabi oliy ta'limda ham ta'lim sifatini ta'minlash, uni baholashga jiddiy e'tibor qaratish, bu borada puxta asoslangan mexanizmni ishlab chiqish.

Demak, ta'lim tizimli bilim olishning eng muhim va ishonchli usulidir. SHu sababli ta'lim jarayonining sifatini yaxshilash va samaradorligini oshirish muhim pedagogik vazifa sanaladi. Har qanday ta'lim o'zida o'qituvchi va o'quvchining faoliyati, ya'ni, o'qituvchining o'rgatish hamda o'quvchining o'rghanishga yo'naltirilgan faoliyati, boshqacha aytganda to'g'ridan to'g'ri, bevosita va nisbiy munosabat aks etadi. Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish hisoblanadi.

"Pedagogik qobiliyat" mavzusini o'qitishdagi innovatsiyalar va ilg'or xorijiy tajribalar

Zamonaviy sharoitda O'zbekiston Respublikasining uzluksiz ta'lim tizimida rivojlangan xorijiy mamlakatlarning o'qitish amaliyotida qo'llanilayotgan ilg'or

pedagogik texnologiyalar va ta’lim innovatsiyalaridan foydalanilmoqda. Quyida ularning ayrimlari xususida to’xtalib o’tamiz.

Modulli o’qitish – o’qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi, chunki u ta’lim oluvchilarning bilish imkoniyatlari va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

An’anaviy ta’limda o’quv maqsadlari pedagog faoliyati orqali ifodalangan,

An’anaviy ta’lim texnologiyasi	Modulli ta’lim texnologiyasi
Bir tomonga yo’naltirilgan axborot	Fikrlash va amaliy faoliyat orqali tahsil olishda faol ishtirok etishni rag’batlantirish Ikki tomonlama muloqot
Bir tomonlama muloqot (darslik→o’qituvchi→talaba) Axborot olish	Tahlil qilish orqali ma’lumotni eslab qolish
Xotirada saqlash	Bilim va ko’nikmalarni namoyish etish
Ma’nosini tushunmagan holda mexanik tarzda yodlash	Mazmunni tushunish va hayotga bog’lash

ya’ni bilim berishga yo’naltirilgan bo’lsa, modulli o’qitishda ta’lim oluvchilar faoliyati orqali ifodalanib, kasbiy faoliyatga yo’naltirilgan bo’ladi.

Quyidagi jadvalda modulli o’qitish texnologiyasining an’anaviy o’qitishdan farqli xususiyatlari keltiriladi.

Ushbu jadvalning tahlili shuni ko’rsatadiki, modulli texnologiyaga asoslangan ta’lim an’anaviy ta’limdan o’qitish usullari va vositalari uni tashkil etish va natijalari bilan sezilarli farq qiladi. Modulli o’qitish ta’limning quyidagi zamonaviy masalalarini har tomonlama echish imkoniyatini yaratadi.

Modul tizimi quyidagilar uchun imkoniyat yaratadi: faoliyatlik asosida o’qitish mazmunini optimallash va tizimlash dasturlarni o’zgaruvchanligi, moslashuvchanligini ta’minlaydi; o’qitishni individuallashtirish; amaliy faoliyatga o’rgatish va kuzatiladigan xarakterlarni baholash darajasida o’qitish samaradorligini nazorat qilish; kasbga qiziqtirish asosida faollashtirish mustaqillik va o’qitish imkoniyatlarini to’la ro’yobga chiqarish.

Modulli o’qitish samaradorligi quyidagi omillarga bog’liq: ta’lim muassasasining moddiy-texnik bazasi; malakali professor-o’qituvchilar tarkibi darajasi; talabalar tayyorgarligi darajasiga; kutiladigan natijalar bahosiga; didaktik materialarning ishlab chiqilishiga; modullar natijasi va tahliliga.

Modulli o’qitishda o’quv dasturlarini to’la qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan tabaqaqlash orqali bosqichma-bosqich o’qitish imkoniyati yaratiladi. Ya’ni o’qitishni individuallashtirish mumkin bo’ladi. Modulli o’qitishga o’tishda quyidagi maqsadlar ko’zlanadi: o’qitishning uzluksizligini ta’minlash; o’qitishni individuallashtirish; o’quv materialini mustaqil o’zlashtirish uchun etarli sharoit yaratish; o’qitishni jadallashtirish; fanni samarali o’zlashtirishga erishish.

Modulli o'qitish fanning asosiy masalalari bo'yicha umumlashtirilgan ma'lumotlar beruvchi muammoli va yo'riqli ma'ruzalar o'qilishini taqozo etadi. Ma'ruzalar talabalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga qaratilmog'i lozim.

Modul amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari ma'ruzalar bilan birga tuzilishi, ular ma'ruzalar mazmunini o'rganiladigan yangi material bilan to'ldirilishi kerak.

Modulni o'qitishning samaradorligini oshirishga erishish uchun o'qitishning quyidagi usullarini qo'llash mumkin: muammoli muloqotlar, evristik suhbatlar, o'quv o'yinlar, loyihalash va yo'naltiruvchi matnlar va hokazolar.

O'qitishning modul tizimi mazmunidan uning quyidagi afzalliklari aniqlandi: fanlar va fanlar ichidagi modullar orasidagi o'qitish uzlusizligini ta'minlanishi, har bir modul ichida va ular orasida o'quv jarayonini barcha turlarining metodik jihatdan asoslangan muvofiqligini o'rnatilishi; fanning modulli tuzilish tarkibining moslanuvchanligi, talabalar o'zlashtirishi muntazam va samarali nazorat (har qaysi moduldan so'ng) qilinishi; talabalarning zudlik bilan qobiliyatiga ko'ra tabaqalanishi (dastlabki modullardan so'ng o'qituvchi ayrim talabalarga fanni individullashtirishni tavsiya etishi mumkin); axborotni "siqib" berish natijasida o'qitishni jadallashtirish auditoriya soatlaridan samarali foydalanish va o'quv vaqtini tarkibini ma'ruzaviy amaliy (tajribaviy) mashg'ulotlar individual va mustaqil ishlar uchun ajratilgan soatlarni – optimallashtirish.

Modulli o'qitish fan tarkibidagi modullar orasidagi uzviylikni ta'minlashga o'qitishni jadallashtirishga talabalarning o'zlashtirishini muntazam nazorat qilishga va baholashga qiziqtrish asosida amaliy faoliyatga o'rgatishga hamda o'quv materialini bosqichma-bosqich o'qitish orqali fanni samarali o'zlashtirishga erishiladi. Qobiliyat – odam psixikasining eng muhim hususiyatlaridan biri bo'lib, bu xususiyatlarni xaddan tashqari keng to'ldirish imkonini oqibatida qandaydir bir qobiliyatning nisbiy zaifligi, hattoki shunday bu qobiliyat bilan hammasidan ko'ra bir-biri bilan chambarchas bog'liq faoliyatning muvafaqqiyatli bajarish imkonini aslo yo'q emas.

Qobiliyat bilimdan farq qiladi. Bilim – bu ilmiy mutolaalar natijasidir, qobiliyat esa insonning psixologik va fiziologik tuzilishiga xos bo'lgan xususiyatdir. Qobiliyat bilim olish uchun zaruriy shart-sharoit yaratadi, shu bilan birga, u ma'lum darajada bilim olish mahsulidir.

Umumiyl va maxsus bilimlarni o'zlashtirish, shuningdek, kasbiy mahoratni egallash jarayonida qobiliyat mukammallahib va rivojlanib boradi.

Pedagogik qobiliyat – bu qobiliyat turlaridan biri bo'lib, kishining pedagogik faoliyatga yaroqliligini va shu faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullana olishini aniqlab beradi.

Pedagogik psixologiyada o'qituvchilik faoliyatida pedagogik qobiliyatlarning tutgan o'rmini ilmiy izohlab berishga oid samarali tadqiqotlar olib borilgan.

Yirik psixolog S.L.Rubinshteyn ta'kidlab o'tganidek, pedagogik jarayon o'qituvchi-tarbiyachining faoliyati tariqasida rivojlanuvchi bola shaxsini shakllantiradi, bu esa pedagogning o'quvchi faoliyatiga naqadar rahbarlik qilishiga yoki aksincha, unga ehtiyoj sezmasligiga bog'liq.

Pedagogik qobiliyatning turlari va ularning tavsifi:

Yirik olim F.N.Gonobolin pedagogik qobiliyatlarni quyidagi turlarga ajratishni taklif etadi:

- 1) didaktik qobiliyatlar; 2) akademik qobiliyatlar;
- 3) pertseptiv qobiliyatlar; 4) nutq qobiliyatları;
- 5) tashkilotchilik qobiliyati; 6) avtoritar qobiliyatlar;
- 7) kommunikativ qobiliyatlar; 8) pedagogik xayolot;
- 9) diqqatni taqsimlay olish qobiliyati.

F.N.Gonobolin pedagogik qobiliyatlarni tarkib toptirish bosqichlari, xususiyatlari va xossalari to'g'irisida mukammal ma'lumotlar beradi. Ta'lim va tarbiya jarayonini takomillashtirishda pedagogik qobiliyatlarning roli tajriba materiallariga asoslanib sharhlab beriladi.

Pedagogika va psixologiya sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarga asoslanib, bizningcha, o'qituvchining pedagogik qobiliyatlarini quyidagicha klassifikatsiya qilish mumkin.

1. Didaktik qobiliyat – bu oson yo'l bilan murakkab bilimlarni o'quvchilarga tushuntira olishdir. Bunda o'qituvchining o'quv materialini o'quvchilarga tushunarli qilib bayon etishi, mavzu yoki muammoni ularga aniq va tushunarli qilib aytib berishi, o'quvchilarda mustaqil ravishda faol fikrashga qiziqish uyg'ota olishi ko'zda tutiladi. O'qituvchi zarurat tug'ilgan holatlarda o'quv materialini o'zgartira, soddallashtira oladi, qiyin narsani oson, murakkab narsani oddiy, tushunarsiz, noaniq narsani tushunarli qila oladi

2. Akademik qobiliyat – barcha fanlar yuzasidan muayyan bilimlarga ega bo'lishlik. Bunday qobiliyatlarga ega bo'lgan o'qituvchi o'z fanini o'quv kursi hajmidagina emas, balki ancha keng va chuqurroq biladi, o'z fani sohasidagi yangiliklarni kuzatib boradi. Fan-texnika, ijtimoiy-siyosiy hayotga doir qiziqishlari bilan ko'p narsalarni o'rganib boradi.

3. Pertseptiv qobiliyat – qisqa daqiqalarda o'quvchilar holatini idrok qila olish fazilati, bu o'quvchining, tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira olish qobiliyati, o'quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna olish bilan bog'liq bo'lgan psixologik kuzatuvchanlikdir. Bunday o'qituvchi kichkinagini alomatlar, uncha katta bo'limgan tashqi belgilar asosida o'quvchi ruhiyatidagi ko'z ilg'amas o'zgarishlarni ham fahmlab oladi.

4. Obro'ga ega bo'lishlik qobiliyati - o'zining shaxsiy xususiyati, bilimdonligi, aql-farosatliligi, mustahkam irodasi bilan obro' orttirish uquvchanligi. Fanda bu

qobiliyat turi – avtoritar qobiliyat, deb ham yuritiladi. Obro’ga ega bo’lish o’qituvchi shaxsiy sifatlarining butun bir kompleksiga, chunonchi, uning irodaviy sifatlariga (dadilligi, chidamliligi, qat’iyligi, talabchanligi va hokazo), shuningdek, o’quvchilarga ta’lim hamda tarbiya berish mas’uliyatini his etishga, bu ishonchni o’quvchilarga ham etkaza olishiga bog’liq bo’ladi.

5. Kommunikativ qobiliyatlar – muomala va muloqot o’rnata olish, bolalarga aralashish qobiliyati, o’quvchilarga to’g’ri yondashish yo’lini topa olish, ular bilan pedagogik nuqtai nazardan samarali o’zaro munosabatlar o’rnata bilish, pedagogik nazokatning mavjudligi

6. Konstruktiv qobiliyat - o’quv-tarbiya ishlarini rejalashtirish va natijasini oldindan aytish qobiliyati. Bu qobiliyat o’quvchi shaxsining rivojini loyihalashga, o’quv-tarbiya mazmunini, shuningdek, o’quvchilar bilan ishlash metodlarini tanlab olishga imkon beradi.

7. Gnostik qobiliyat – tadqiqotga layoqatlilik bo’lib, o’z faoliyatini, bu faoliyat jarayonini va uning natijalarini tekshirish hamda o’rganish natijalariga muvofiq faoliyatni qayta qurish qobiliyatidir.

Pedagogik qobiliyatlarni har tomonlama o’rganish qobiliyatlar shaxsning aql-idroki, his-tuyg’usi va iroda sifatlarining namoyon bo’lishidan iborat ekanligini ko’rsatdi. Chiqarilgan xulosalar asosida “pedagogik qobiliyat” modulini o’qitishda interfaol ta’lim metodlardan samarali foydalanish yuzasidan quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

- ilg’or xorijiy tajribalar sifatida ta’lim jarayonida interfaol metodlarni qo’llash orqali OTMdha o’qitish sifatini yaxshilash va samaradorligini oshirishga erishish;

- respublika oliv ta’lim muassasalari faoliyatiga rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta’limi amaliyotida qo’llanilayotgan ilg’or tajribalar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni samarali tatbiq etish orqali bu borada pedagoglarning ish tajribalarini boyitish va ularda ta’lim jarayonini samarali tashkil etishga nisbatan ijodiy, innovatsion yondashuvni qaror toptirish;

- OTMdha talabalarning o’quv-bilish faolligini oshirishga alohida e’tibor qaratilgan holda ta’lim sifatini oshirish va samaradorligini ta’minalashga doir mahalliy tajribalarni to’plash, ularni ommalashtirish.

Zamonaviy sharoitda O’zbekiston ta’lim tizimida interfaol metodlardan keng va samarali foydalanilmogda. Quyida ularning ayrimlari xususida to’xtalib o’tiladi.

1.“Klaster” grafik organayzeri. “Klaster” (g’uncha, to’plam, bog’lam) grafik organayzeri puxta o’ylangan strategiya bo’lib, uni talabalar bilan yakka tartibda, guruh asosida tashkil etiladigan mashg’ulotlarda qo’llash mumkin. Klasterlar ilgari surilgan g’oyalarni umumlashtirish, ular o’rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi.

2.Grafik organayzerdan foydalanishda quyidagi shartlarga rioya qilish talab etiladi:

Nimani o'ylagan bo'lsangiz, uni qog'ozga yozing! Fikringizni sifati haqida o'ylab o'tirmay, shunchaki yozib boring!

Yozuvningizning orfografiyasi yoki boshqa jihatlariga e'tibor bermang!

Belgilangan vaqt nihoyasiga etmaguncha, yozishdan to'xtamang! Agar ma'lum muddat o'ylay olmasangiz, u holda qog'ozga biror narsaning rasmini chiza boshlang! Bu harakatni yangi g'oya tug'ilguniga qadar davom ettiring!

Muayyan tushunca doirasida imkon qadar ko'proq yangi g'oyalarni ilgari surish, ular o'rtasida o'zaro aloqadorlik, bog'liqlikni ko'rsating!

Grafik organayzer yordamida talaba (talaba)lar topshiriq bo'yicha fikrlarini klaster (mayda, alohida qismlar) tarzida quyidagicha ifodalaydi:


2.1.1-*ilova*

“Klaster” texnikasi

Bu usulning ma'nosi – fikrlarning tarmoqlanishi. “**Klaster**” texnologiyasi – psixologik-pedagogik strategiya bo'lib, u talabalarni biror-bir mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam beradi. Talabalarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog'langan holda tarmoqlashlariga o'rgatadi. Bu usul biror mavzuni chuqur o'rganishdan avval talabalarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qiladi. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, umumlashtirish hamda talabalarni shu mavzu bo'yicha tasavvurlarini **chizma** shaklida ifodalashga undaydi.

Bu bosqichda o'qituvchi mavzuga doir zaruriy terminlar va tushunchalar: *inson* → *tabiat* (*i-ta*); *inson* → *texnika* (*i-te*); *inson* → *inson* (*i-i*); *inson* → *belgilar tizimi* (*i-bt*); *inson* → *badiiy obraz* (*i-bo*), *gnostik kasblar*; *o'zgaruvchan kasb*; *izlanuvchilik kasbi*; *qo'l mehnatiga asoslangan kasblar*; *mashina* va *qo'l mehnati kasblari*; *avtomatlashtirilgan* va *avtomatik tizimi* *qo'llash* bilan *bog'liq bo'lgan kasblar*; *mehnat vositalarining ko'pfunksiyaliligiga bog'liq kasblar* kabi tushunchalarning mazmuniga “**klaster**” texnologiyasi yordamida aniqlik kiritib beradi.


2.1.2-*ilova*



Bunda o'qituvchi klaster usulini tuzishning quyidagi ketma-ketligiga e'tiborni qaratishi zarur:


2.1.3-ilo va

- O'quv doskasiga yoxud yozish uchun foydalanish mumkin bo'lgan sathga "kalit" so'z yoki gap yoziladi.
- Shu mavzuga tegishli deb hisoblangan va xayolga kelgan so'z va gaplar yoziladi.
- Fikrlar paydo bo'lganda va ularni yozganda fikrlar o'rtasida mumkin bo'lgan bog'lanishlar belgilanadi.
- Fikrlar tugamaguncha yoki vaqt tamom bo'lguncha xayolga kelgan barcha fikrlar yozilaveradi.
- Keltirilgan so'z va fikrlar mazmuni hamda yaqinligiga qarab toifalarga ajratib chiqiladi.



Ma'ruzachi tomonidan “Pedagogika va pedagogik qobiliyatga oid lug'atlar tahlili” rejasi talabalarga ma'lumotlarni tarkibiy bo'lib chiqish, o'rganilayotgan tushunchalar (voqeja va hodisalar, mavzular) o'rtasidagi aloqa va o'zaro bog'liglikni o'rnatish usul va vositalari sanaladigan grafik organayzerlar texnikasi tarkibiga kiruvchi **“B/B/B” jadvali** va *slaydlar taqdimoti* yordamida tushuntiriladi.


“B/B/B” jadvalini tuzish qoidasi



“B/B/B” jadvali


Nº	Mavzu savollari	Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
1	2	3	4	5
1.	Pedagogika fani qaysi fanlar bilan aloqador?
2.	Gumanitar bilim sohasiga oid qanday fanlarni bilasiz?
3.	Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq sohasiga taalluqli qanday fanlarni bilasiz?
4.	Ishlab chiqarish va texnik sohaga tegishli qanday kasblarni bilasiz?
5.	Qishloq va suv xo'jaligi sohasiga oid qanday kasblarni bilasiz?
6.	Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohalariga tegishli qanday kasblarni bilasiz?
7.	Xizmatlar sohasi doirasidagi qanday kasblarni bilasiz?

Ma'ruzachi Oliy ta'lim muassasasi talabalariga “Pedagogik qobiliyat”ni tushuntirishda muammoni aniqlash, uni hal etish, tahlil qilish va rejalashtirish usullari va vositalari sanaladigan grafik organayzerlar texnikasi tarkibiga kiruvchi “**nima uchun?**” va “**baliq skleti**” **chizmalari** metodlaridan foydalanib talabalarga ushbu metodlarni qanday qo'llash bo'yicha instruktsiyalarni beradi.



2.3.1-*ilova*

“Nima uchun?” chizmasi



2.3.2-*ilova*

Ma’ruzachi Oliy ta’lim muassasasi talabalari zimmasiga qo’yilgan muammoni **“Nima uchun?” chizmasi** yordamida hal etish vazifasini yuklar ekan, uni tuzishda quyidagi qoidalarga qat’iy amal qilishni uqtirish lozim.

2.3.3-*ilova*

“Nima uchun?” chizmasini tuzish qoidalari

- 1. Aylana yoki to’g’ri to’rburchak shakllardan foydalanishni o’zingiz tanlaysiz.
- 2. Chizmaning ko’rinishini – mulohazalar zanjirini to’g’ri chiziqligini, to’g’ri chiziqli emasligini o’zingiz tanlaysiz.
- 3. Yo’nalish ko’rsatkichlari: muammo bilan bog’liq qidiruvlaringizni dastlabki holatdan to’zlanish echimigacha bo’lgan harakat traektoriyasi bo’ylab aniqlanadi.

2.3.4-*ilova*

Oliy ta’lim muassasasi talabalariga “Kasblarning maqsadiga ko’ra sinflari” rejasi yuzasidan tarqatilgan materialdagi matnni o’qib chiqish topshirig’i beriladi. Olingan ma’lumotlarni diqqat bilan o’rganib, “insert” usuli yordamida sohalarga ajratish talab etiladi. Qalam bilan har bir qatorga quyidagi shartli belgilarni qo’yib chiqish vazifasi yuklatiladi:

- **V** – men bilgan ma’lumotlarga mos;
- **+** – men uchun yangi ma’lumot;
- **-** – men bilgan ma’lumotlarga zid;
- **?** – men uchun tushunarsiz yoki ma’lumotni aniqlash, to’ldirish talab etiladi.

Insert – samarali o’qish va fikrlash uchun matnda belgilashning interfaol tizimi.


Insert – avvalgi bilimlarni faollashtirish va matnda belgilash uchun savollarning qo’yilish tartibi. Shuningdek, matnda uchraydigan turfa xildagi ma’lumotlarning shartli belgilar yordamida tizimlashtirilishi.

Insert – matn bilan ishlash jarayonida ta’lim oluvchiga o’zining mustaqil bilim olishini faol kuzatish imkonini ta’minlovchi kuchli vosita.

Insert – o’quv materialini mustaqil o’zlashtirish orqali bilimlarni mustahkamlash, shuningdek, kitob bilan ishlash malakasini rivojlantirishga qaratilgan o’qitish usulidir.

2.4.1-*ilova*

“Insert” jadvali



O'qituvchi "Pedagogik mahorat fanining mavzu bo'yicha bo'limlari" rejasini ma'lumotlarni tarkibiy bo'lib chiqish, o'rganilayotgan tushunchalar (voqeal-hodisalar, mavzular) o'rtasidagi aloqa va o'zaro bog'liqlikni o'rnatish usul va vositasi sanalgan "**pinbord**" texnikasi orqali tushuntiradi.

Pinbord (inglizcha: pin – mahkamlash, board – doska) – muammoni hal qilishga oid fikrlarni tizimlashtirish va guruhlashni amalga oshirishga, guruhiy tarzda yagona yoki aksincha qarama-qarshi pozitsiyani shakllantirishga imkon beradigan pedagogik texnologiya usulidir.


Bunda o'qituvchi taklif etilgan muammo bo'yicha har bir ishtirokchidan o'z nuqtai nazarini bayon qilishni so'rab, to'g'ridan-to'g'ri yoki ommaviy tarzdagi aqliy hujumning boshlanishini tashkil qiladi.

Oliy ta'lim muassasasi talabalari esa o'z g'oyalarini taklif qiladilar, muhokama qiladilar, baholaydilar va eng maqbul (samarali) fikrni tanlaydilar. Ularni tayanch xulosaviy fikr (2 ta so'zdan ko'p bo'limgan) sifatida alohida qog'ozlarga yozadilar va doskaga mahkamlaydilar.


2.5.1-ilo va "Pinbord" texnikasi

Pinbord texnikasi

Bu (inglizchadan: pin – mahkamlash, board - doska)- muammoni hal qilishga oid fikrlarni tizimlashtirish va guruhlashtirishni amalga oshirishga, guruhiy tarzda yagona yoki aksincha qarama-qarshi pozitsiyani shakillantirishga imkon beradigan usul



Bayon qilingan muammo yuzasidan ishtirokchilarning o'z nuqtai nazarilari so'raladi.
To'g'ridan – to'g'ri yoki ommaviy aqliy hujumning boshlanishini tashkil qilinadi.



Mulohazalarni bildiradi, fikrlar muhokama qilinadi, baholanadi va eng maqbul (samarali) fikr tanlanadi. Ular tayanch xulosaviy fikr (2 ta so'zdan ko'p bolmagan) sifatida alohida qag'ozlarga yozilib, doskaga mahkamlanadi.



Har bir kichik guruhdan tanlangan bir vakil doskaga chiqadi va maslahatlashgan holda:


- Yaqqol xato bo'lgan yoki takrorlanayotgan fikrlarni olib tashlaydi;
- Bahsli bo'lgan fikrlarni oydinlashtiradi;
- fikrlarni tizimlashtirish mumkin bo'lgan belgilarini aniqlaydi;
- shu belgilar asosida doskadagi barcha fikrlarni guruhlarga ajratadi;
- ularning o'zaro munosabatlarini chiziqlar yoki boshqa belgilar yordamida ko'rsatadi hamda jamoaning yagona yoki qarama-qarshi pozitsiyasini shakllantiradi

Har bir kichik guruh a'zolari orasidan o'qituvchi tomonidan belgilangan bitta talaba doska oldiga chiqadi va boshqalar bilan maslahatlashib: yaqqol xato bo'lган yoki takrorlanayotgan fikrlarni olib tashlaydi; bahsga sabab bo'lувчи fikrlarni oydinlashtiradi; fikrlarni yagona tizimga olib kelishi mumkin bo'lган belgilarini aniqlaydi; shu belgilar asosida doskadagi (qog'oz varaqlaridagi) barcha fikrlarni guruhlarga ajratadi; ularning o'zaro munosabatlarini chiziqlar yoki boshqa belgilar yordamida ko'rsatadi hamda yakunda guruhning yagona yoki qarama-qarshi pozitsiyasini shakllantiradi.

O'qituvchi talabalar bilan hamkorlikda "Pedagogik qobiliyat" mavzu rejasining mazmunini dastlab, slaydlar taqdimoti yordamida tushuntiradi, so'ngra, ma'lumotlarni tahlil qilish, solishtirish va taqqoslash usul va vositalari hisoblanadigan grafik organayzerlar texnikasi tarkibiga kiruvchi "*Venn diagrammasi*" texnikasi orqali asoslaydi.

2.6.1-ilovalar

"Venn diagrammasi"



2.6.2-ilovalar

"Skarabey" strategiyasi. "Skarabey" ("Qo'ng'iz") strategiyasi talabalarda mantiqiy fikrlesh qobiliyatini, xotirani, shuningdek, muayyan muammoni hal qilishda o'z fikrini ochiq, erkin ifodalash malakasini rivojlanishiga xizmat qiladi. Talaba strategiyani qo'llash jarayonida bilimlarining sifati, darajasini xolis baholash, o'rganilayotgan mavzu haqidagi tasavvuri ko'lamenti aniqlash imkoniyatini qo'lga kiritadi. Strategiya turli g'oyalarni ochiq, erkin, mantiqan ifodalash, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashda ham samarali sanaladi.

Uning yordamida talabalarda quyidagi sifatlarni shakllantirish, rivojlantirishga


erishish mumkin: mustaqil ishlash; muloqotga erkin kirisha olish; xushfe'llik, o'zgalar fikrini hurmat qilish; faollik; faoliyatga ijodiy yondashish; faoliyatining samarali bo'lishiga qiziqish; o'z-o'zini baholash.

Strategiyadan darsning muayyan bosqichlarida turli maqsadlarda foydalanish mumkin. Ya'ni:

Mazkur strategiya talaba tomonidan oson qabul qilinadi. Zero, u shaxsga xos fikrlash, bilish xususiyatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan.

“Qarorlar shajarasi” (“Qaror qabul qilish”) strategiyasi. Strategiya muayyan fan asoslariga oid bir qadar murakkab mavzularni o'zlashtirish, ma'lum masalalarni har tomonlama, puxta tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, muammo yuzasidan bildirilayotgan bir nechta xulosa orasidan eng maqbul hamda to'g'risini topishga yo'naltirilgan texnik yondashuvdir. U avvalgi vaziyatlarda qabul qilingan qarorlarni yana bir bora tahlil qilish, uni mukammal tushunishga xizmat qiladi.

Ta'limda strategiyani qo'llash o'rganilayotgan muammo yuzasidan oqilona qaror qabul qilish (xulosaga kelish) uchun talabalar tomonidan bildirilayotgan har bir variantni tahlil qilish, maqbul va nomaqbul jihatlarini aniqlash imkoniyatini yaratadi. Unga ko'ra mashg'ulotlarda talabalar quyidagi chizma asosida ishlaydi (u yoki bu tartibdagi faoliyatni olib borishda yozuv taxtasidan foydalanadi):



Mazkur strategiyaning o'ziga xos jihat shundaki, u bevosita ma'lum loyiha asosida qo'llaniladi. Loyiha quyidagi ko'rinishga ega:

1-qaror varianti		2-qaror varianti		3-qaror varianti	
Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi
QAROR:					

Shunday qilib, zamonaviy sharoitda globallashuv ta'lim sohasida turli mamlakatlar o'rtasidagi aloqalarning kengayishiga imkoniyat yaratdi. Buning natijasida O'zbekiston uzlusiz ta'lim tizimida xorijiy mamlakatlar amaliyotida faol qo'llanilayotgan ilg'or pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llash imkoniyati yuzaga keldi. Ilg'or ta'limiy texnologiyalar, xususan, zamonaviy o'qitish turlari, interfaol metodlar va Internet orqali (masalan, vibinar metodi yordamida) o'qitish, Onlayn konferentsiyalar, ochiq ma'ruzalarning respublika ta'lim tizimida qo'llanilishi o'zining ijobiy natijalarini bermoqda.

Demak, bugungi kunda rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta'lim jarayonining sifatini oshirish, samaradorligini takomillashtirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada boy tajriba to'plangan. Ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlash borasida to'plangan mavjud tajribalar orasida modulli o'qitish (modul ta'limi) alohida o'rinn tutmoqda. Zero, modulli o'qitish (modul ta'limi) ma'lum modul (bob, bo'lim)ni puxta o'zlashtirishdan so'ng navbatdagi modul (bob, bo'lim)ni o'rganishga kirishishni yaratish imkoniyatiga ega. Bu esa ta'lim oluvchilarning bilim olish imkoniyatlarini oshirish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

II BOB. “PEDAGOGIK MAXORAT” FANIDAN ELEKTRON O’QUV MODULI ISHLANMASI

2.1. “Pedagogik maxorat” fanidan o’quv dasturining qisqacha tavsifi (sillabus)

Fanning qisqacha tavsifi			
OTMning nomi va joylashgan manzili:	Nukus davlat pedagogika instituti		Nukus shahar P.Seytov ko’chasi, raxamsiz uy
Kafedra:	Pedagogika o’quv binosi 5, xona 407		Pedagogika fakulteti tarkibida
Ta’lim sohasi va yo’nalishi:	Gumanitar	5110900-Pedagogika va psixologiya	
Fanni (kursni) olib boradigan o’qituvchi to’g’risida ma’lumot:	Saparbaeva Tazagul Tlekovna kafedra katta o’qituvchisi	Saparbaeva@mail.uz	
Dars vaqtি va joyi:	Institutning o’quv uslubiy bo’limi tomonidan ishlab chiqilgan jadval asosida 5-bino “Pedagogika” fakulitetida o’quv xonalarida	Kursning davomiyligi:	Ta’lim yo’nalishi o’quv rejasiga ko’ra 3-kurs V – semestr
Individual grafik asosida ishlash vaqtি:	Xaftaning barcha kunlarida 9.00 dan 18.00 gacha		
Fanga ajratilgan Soatlari	Auditoriya soatlari		Mustaqil ta’lim: 60
Fanning boshqa fanlar bilan bog’liqligi (prerekvizitlari):	Ma’ruza: 40 Amaliyot 38 „Pedagogika” fani “Falsafa”, «Psixologiya», “Etika va estetika”, “Madaniyatshunoslik” “Ta’lim menejmenti”, “Umumiy pedagogika”, “Ma’naviyat asoslari” va boshqa fanlar bilan o’zaro aloqadorlikda ish ko’radi.		
Fanning mazmuni			
Fanning dolzarbligi va qisqacha mazmuni:	Fanni o’qitishdan maqsad – “Pedagogika” fanining predmeti, maqsadi, vazifalarini aniqlash, hamda uning rivojlanish tarixini o’rganish; talabalarni zamonaviy ta’lim-tarbiya tizimlari, xususan, O’zbekistonning uzlusiz ta’lim tizimi hamda milliy g’oya va milliy mafkurani xalqimiz ongiga singdirish masalasi; pedagogika va o’qitish jarayonlari, ta’lim mazmuni va tarbiya nazariyasi, ta’lim va tarbiyaning metodlarini o’rganish, pedagogikaning tabiiy ijtimoiy asoslari va pedagogik faoliyat hamda uni tashkil etish jihatlarini aniqlash; talabalarni ta’lim-tarbiyaning birligi, pedagog shaxsi va uning ijtimoiy burchi bilan tanishirishdan iborat. Fanning vazifasi – Shaxsni shakllantirishdek ijtimoiy buyurtmani bajarish asosida jamiyat taraqqiyotini ta’minlashga alohida xissa qo’shami. Yuksak ma’naviy ahloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tarbiyalash tizimini ishlab chiqish, milliy g’oya asosida ta’lim va tarbiya nazariyasini ijobiy rivojlantirish		

	vazifasini hal etadi. Bo'lajak mutaxassislarni pedagogika nazariyasiga oid bilimlar, shu jumladan, ta'lim-tarbiya usullari to'g'risidagi bilim, zarur ko'nikma va malakalarni hosil qildirishdan iborat.
Talabalar uchun talablar	<ul style="list-style-type: none"> - o'qituvchiga va guruhdoshlarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lish; - institut ichki tartib - intizom qoidalariga rioya qilish; - uyali telefonni dars davomida o'chirish; - berilgan uy vazifasi va mustaqil ish topshiriqlarini o'z vaqtida va sifatli bajarish; - ko'chirmachilik (plagiat) qat'iyan man etiladi; - darslarga qatnashish majburiy hisoblanadi, dars qoldirilgan holatda qoldirilgan darslar qayta o'zlashtirishi shart; - darslarga oldindan tayyorlanib kelish va faol ishtirop etish; - talaba o'qituvchidan so'ng, dars xonasiga - mashg'ulotga kiritilmaydi; - talaba reyting balidan norozi bo'lsa e'lon qilingan vaqtidan boshlab 1 kun mobaynida apellyatsiya komissiyasiga murojat qilishi mumkin
Elektron pochta orqali munosabatlar tartibi	Professor-o'qituvchi va talaba o'rtasidagi aloqa elektron pochta orqali ham amalga oshirilishi mumkin, telefon orqali baho masalasi muhokama qilinmaydi, baholash faqatgina institut hududida, ajratilgan xonalarda va dars davomida amalga oshiriladi. Elektron pochtani ochish vaqt soat 15.00 dan 20.00 gacha

Fan mavzulari va unga ajratilgan soatlar taqsimoti:

Nº	Mavzular	Ma'ruza	Amaliy (seminar)	Mustaqil ish
1.	Pedagogik mahorat hakida tushuncha, uning o'qituvchi faoliyatida tutgan o'rni.	2	2	6
2.	O'qituvchi faoliyatida pedagogik qobiliyat.	4	4	4
3.	O'qituvchining kommunikativlik qobiliyati	2	2	6
4.	O'qituvchi faoliyatida muloqat madaniyati va psixologiyasi.	4	4	4
5.	O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqat.	2	2	6
J A M I		12	12	20

Talabalar bilimini baholash tizimi:

t/r	Nazorat turlari va topshiriqlarning nomlanishi	Nazorat turlari bo'yicha maksimal ball	O'tkazish vaqtি
	<i>1. Joriy nazorat uchun ballar taqsimoti</i>	30 ball	Semestr davomida
Ma'ruza mashg'ulotlarida			
1.	Talabaning ma'ruza mashg'ulotlarida faol ishtirok etishi, muntazam ravishda konspekt yuritib borayotganligi uchun	10	
Amaliy (seminar) mashg'ulotlarida			
2.	Talabaning mashg'ulotlarda faol ishtirok etganligi, berilgan savollarga to'g'ri javob qaytarganligi, amaliy topshiriqlarni (o'quv elementlari bo'yicha) bajarganligi uchun	20	Semestr davomida
<i>II. Oraliq nazorat</i>		40 ball	
1.	Ma'ruza asosida tuzilgan modul topshiriqlari bo'yicha	30	Semestrning 7-haftasi
2	Mustaqil ta'lif uchun tuzilgan modul topshiriqlari bo'yicha	10	Semestrning 14-haftasi
<i>III. Yakuniy nazorat</i>		30 ball	Semestrning oxirgi 2 haftasida
1.	Umumiy o'quv kursi bo'yicha tuzilgan topshiriqlar asosida o'tkaziladi		
<i>Jami:</i>		100 ball	

Talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichlari namunaviy mezonlari

Ball	Baho	Talabalarning bilim darajasi
86-100	A'lo	Xulosa va qaror qabul qilish. Ijodiy fikrlay olish. Mustaqil mushoxada yurita olish. Olgan bilimlarini amalda ko'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish.
71-85	Yaxshi	Mustaqil mushohada qilish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish.
55-70	Qoniqarli	Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish.
0-54	Qoniqarsiz	Aniq tasavvurga ega bo'lmaslik. Bilmaslik.

Asosiy adabiyotlar:	1. Pedagogika. Darslik. M.To'xtaxodjaeva, J.Xasanboev, M.Usmonboeva. "O'zbekiston faylasuflari" milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent, 2010 y., 399-bet 2. Pedagogika. Darslik. J.Xasanboev, X.To'raqulov, I.Alqarov, N.Usmonov. "Noshir" nashriyoti, Toshkent 2011y, 454 bet. 3. O'Asqarova, M.Xayitboev, M.Nishonov. Pedagogika. Darslik. "Talqin" nashriyoti, Toshkent, 2008. 287bet.
Qo'shimcha adabiyotlar:	1. B.Yu.Xodiev, O.Abdullaev, I.Inomov va boshqalar. Yangi pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: O'qituvchi. 2007. -203 bet. 2. A.Xoliqov. Pedagogik mahorat. Darslik. "Tafakkur bo'stoni" nashriyoti, 2011 y. 3. I.P.Podlasiy. Pedagogika. Uchebnik dlya studentov visshix uchebnix zavedeniy. Uchebnoe posobie. -M.: Vlados, 2007. - 140 str.

2.2. “Pedagogik qobiliyat” modulidan ma’ruza matni mashg’ulotning texnologik passorti

Ma’ruzaga ajratilgan vaqt – 2 soat		Talabalar soni – 60 nafar
O’quv mashg’ulotining shakli va turi		Ma’ruza (Ko’rgazmali ma’ruza)
O’quv mashg’ulotining tarkibiy tuzilmasi	1. “Blits-savol” metodi yordamida talabalar tomonidan avvalgi mavzuning o’rganilish darajasini aniqlash. 2. Tashkiliy masalalarni hal qilish, ma’ruza mavzusi va uning o’ziga xos jihatlari to’g’risida ma’lumotlar berish. 3. Mavzuga oid tayanch tushunchalarni aniqlash. 4. Ma’ruza mohiyatini “Taqdimot” metodi asosida yoritib berish. 5. “Klaster” metodi yordamida talabalar tomonidan o’zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash. 6. Mashg’ulotni yakunlash.	
O’quv mashg’ulotning maqsadi	Talabalarga ta’lim jarayoni, uning funktsiyalari, asosiy kategoriyalari, ta’limni tashkil etish shakllari, metodlari va vositalari to’g’risida ma’lumotlar berish	
Pedagogik vazifalar: <ul style="list-style-type: none"> 1) didaktikaning mohiyati to’g’risida tushuncha berish; 2) talabalarni didaktikaning tarkib topishi va rivojlanishi haqidagi ma’lumotlar bilan tanishtirish; 3) talabalar tomonidan didaktikaning predmeti, funktsiyalari, vazifasi va asosiy kategoriyalari to’g’risidagi bilimlar o’zlashtirilishiga erishish; 4) talabalarni didaktik tushunchalar tizimi hamda didaktik nazariya (kontseptsiya)lar to’g’risidagi nazariy bilimlar bilan quollantirish; 6) talabalarda zamonaviy ta’lim paradigma (modeli)lari haqidagi 	O’quv faoliyati natijalari: <ul style="list-style-type: none"> 1) talabalar didaktikaning mohiyati to’g’risidagi bilimlarni o’zlashtiradilar; 2) talabalar didaktikaning tarkib topishi va rivojlanishi haqidagi ma’lumotlardan xabardor bo’ladilar; 3) talabalar didaktikaning predmeti, funktsiyalari, vazifasi va asosiy kategoriyalari to’g’risidagi bilimlardan xabardor bo’ladilar; 4) talabalar rivojlanishning yosh va o’ziga xos xususiyatlari to’g’risidagi nazariy bilimlarni o’zlashtiradilar; 5) talabalar didaktik tushunchalar tizimi hamda didaktik nazariya (kontseptsiya)lar to’g’risidagi nazariy bilimlarni o’zlashtiradilar; 6) talabalarda zamonaviy ta’lim paradigma 	

tushunchalarni hosil qilish	(modeli)lari haqidagi tushunchalar hosil bo'ladi
Ta'lim metodlari	Ma'ruza, suhbat, namoyish, "Bumerang" strategiyasi, "Sxema" , savol-javob
Ta'limni tashkil etish shakli	Ma'ruza, ommaviy
Didaktik vositalar	Mavzuga doir adabiyotlar, plakatlar, ma'ruza matni, slayd-taqdimot
Ta'limni tashkil etish sharoiti	Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan xona
Nazorat	Joriy nazorat, savol-javob

Mashg'ulotning texnologik xaritasi


Ish bosqich lari va vaqtி	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. O'quv mashg'uloti ga kirish – tashkiliy-tayyorgarlik bosqichi (20 daqiqa)	<ul style="list-style-type: none"> 1. Mavzu, mavzuni o'zlashtirishdan ko'zlangan maqsad va kutilayotgan natijalarni bayon etadi. 2. Kichik guruhlarni shakllantiradi. 3. O'quv mashg'ulotining tuzilishli-mantiqiy sxemasini taqdim etadi. 4. Vaqtı-vaqtı bilan talabalarni hamkorlikka, faollikka undaydi. 5. Talabalar, kichik guruhlarni faoliyatini nazorat qilib boradi. 7. Mashg'ulotni tashkil etishdan kutilgan natijaga erishilganlik darajasini baholaydi. 8. Mashg'ulotni yakunlaydi 	<ul style="list-style-type: none"> 1. O'qituvchi nutqini tinglaydi, mavzu va uning mazmunini yorituvchi g'oyalarni yozib oladi. 2. Kichik guruhlarda ishlaydi. 3. Taqdim etiladigan sxema, plakat va taqdimot bilan tanishadi. 4. Zarur o'rnlarda savollar bilan murojaat qiladi. 5. O'qituvchi, tengdoshlari bilan bahsga kirishib, mavzu bo'yicha o'zlashtirayotgan bilimlarini oydinlashtiradi. 6. Mavzu mazmuni bo'yicha tasavvur va bilimlarga ega bo'ladi
2-bosqich. Asosiy qism – anglash bosqichi (50 daqiqa)	<ul style="list-style-type: none"> 1. Talabalarni mavzu rejasi va asosiy tushunchalari bilan tanishtiradi. 2. Plakatlar mohiyatini yoritadi. 3. Mavzuga doir o'quv materialini kichik guruhlarga tarqatadi. 4. Taqdimot asosida nazariy ma'lumotlarni bayon etadi, tayanch tushunchalarni ajratib ko'rsatadi. 5. Guruhlarga topshiriqlar beradi. 6. O'quv materialining bo'limlari va umumiy mazmuni bo'yicha yakuniy xulosani bayon etadi. 	<ul style="list-style-type: none"> 1. Mavzu rejasi va asosiy tushunchalar bilan tanishadi. 2. Plakatlar mohiyatini o'rganadi. 3. O'qituvchi nutqini tinglaydi, taqdimot bilan tanishadi. 4. Mavzuga oid tayanch tushunchalarning mazmunini o'rganadi. 5. Zarur o'rnlarda savollar bilan o'qituvchiga murojaat qiladi. 6. O'quv materialining asosiy o'rnlarini o'z daftarlariga qayd etishadi.

3-bosqich. Yakuniy qism – fikrlash bosqichi (10 daqiqa)	<ol style="list-style-type: none"> 1. Guruhlardan berilgan topshiriqlarni bajarishlarini so'raydi. 2. Guruhlar tomonidan ishlangan klaster mazmunini jamoa bilan hamkorlikda tahlil qiladi. 3. Berilgan savollar asosida mavzuning yaxshi o'zlashtirilmagan qismini qayta tushuntiradi. 4. Talabalarga mustaqil ishlash uchun topshiriq beradi, topshiriqni baholashga oid mezonlari bilan ularni tanishtiradi 	<ol style="list-style-type: none"> 1. Guruh tarkibida topshiriqning echimini izlaydi. 2. Guruhning topshiriq borasidagi fikri bilan jamoani tanishtiradi. 3. Boshqa guruhlarning echimlari bilan tanishadilar, ularga o'z fikrlarini bildiradi. 4. O'zlashtirgan bilimlarini mustahkamlaydi. 5. O'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni yozib oladi
--	--	--

“Ta’lim jarayoni yaxlit tizim sifatida” mavzusining mazruza matni

Ta’lim jarayonining yaxlitligi uning tizimliligi bilan uzviy bog’liq. Ta’lim yaxlit tizim sifatida o’zaro bog’liq quyidagi elementlarni o’z ichiga oladi: ta’lim maqsadi, o’quv axborotlari, o’qituvchi va o’quvchilarining ta’limiy faoliyatлари, o’qitish shakllari, pedagogik muloqot vositalari, shuningdek, ta’lim jarayonini boshqarish usullari.

Ta’lim jarayoni yaxlit tizim sifatida quyidagicha namoyon bo’ladi:



Ta'lim jarayoni negizini o'qituvchi va o'quvchilarning o'quv faoliyatları tashkil etadi.

Ta'lim jarayonining asosiy funktsiyalari. “Funktsiya” tushunchasi “ta’lim vazifalari” tushunchasiga yaqindir. Ta’lim funktsiyasi ta’lim jarayoni mohiyatini ifoda etadi, vazifasi esa ta’limning komponentlaridan biri hisoblanadi.

Didaktika (ta’lim jarayoni)ning quyidagi uchta funktsiyasini ajratib ko’rsatadi: ta’lim berish, rivojlantirish va tarbiyalash.

Ta’lim natijasi sifatida bilimlarning to’laligi, chuqurligi, tizimliligi, anglanganligi, mustahkamligi va amaliy xususiyat kasb etishi muhimdir. Bu kabi holatlar ta’lim jarayonining metodik jihatdan to’g’ri tashkil etilganligini ifodalaydi.

Ta’lim jarayonida o’quvchilarda ular tomonidan o’zlashtirilgan nazariy bilimlar asosida hosil qilingan amaliy ko’nikma va malakalarning shakllanishi ham alohida ahamiyatga ega.

Umumiyoq ko’nikma va malakalarga og’zaki va yozma nutqni bilish, axborot materiallaridan foydalana olish, o’qish, manbalar bilan ishlash, referat yozish, mustaqil ishni tashkil etish kabilalar kiradi.

Ta’lim jarayonining ta’lim berish funktsiyasi o’quvchilarda bilim, ko’nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat

Rivojlanish quyidagi yo’nalishlarda sodir bo’ladi: nutq, fikrlash, sensorli-harakatli va hissiy-irodaviy sohalarning rivojlanishi. To’g’ri tashkil etilgan ta’lim shaxsni har doim rivojlantiradi.

Ta’lim jarayoni tarbiyalovchi xususiyatga ham ega. Tarbiya va ta’lim o’rtasidagi bog’liqlik ob’ektiv va qonuniy hisoblanadi. Biroq, shaxsni ta’lim jarayonida tarbiyalash tashqi omillar (oila, mikromuhit va boshqalar) ning ta’siri tufayli qiyin kechadi.

Ta’limning rivojlantiruvchi funktsiyasi ta’lim jarayonida bilimlarni o’zlashtirish jarayonida o’quvchining rivojlanishi sodir bo’lishini ifodalaydi

Ta’lim jarayonida shaxsning ma’naviy-axloqiy va estetik tasavvurlari, xulq-atvori va dunyoqarashi shakllantiriladi.

Ta’lim jarayonida tarbiyaning ikkinchi omili pedagogik jarayonga o’qituvchining rahbarligi hisoblanadi.

O’qituvchi faoliyatining vazifasi va tuzilishi. O’qituvchi faoliyatining vazifasi o’quvchilarning ijtimoiy borliqni ongli va faol idrok etishga yo’naltirilgan

faoliyatlarini boshqarishdan iboratdir.

O'qituvchi faoliyatini rejalashtirish bosqichi kalendar-tematik yoki darslar rejalarini tuzish bilan yakunlanadi. O'qituvchi o'quvchilarning tayyorliklari darajasi, ularning o'quv imkoniyatlari, moddiy baza holati, shaxsiy (kasbiy) imkoniyatlarini o'rganib chiqishi, o'quv materiali mazmunini belgilashi, dars olib borish shakli va metodini o'ylab ko'rishi kerak bo'ladi.

O'quvchilar faoliyatini tashkil etish o'quvchilar oldiga o'quv masalalarini qo'yish, ularni bajarish uchun sharoit yaratishdan iborat bo'ladi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilar faoliyatini boshqarish ularni to'g'ri yo'naltirishni nazarda tutadi. Nazorat qilish esa o'quvchilar faoliyatining maqsadga muvofiq, samarali tashkil etilishini ta'minlaydi. Natijalarni baholash va tahlil qilish ta'lim jarayonining qanday kechganligini bilish, yutuqlar omillarini o'rganish va yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etish choralarini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

Bilim olish faoliyatning o'ziga xos ko'rinishi bo'lib, muayyan qonuniyatlarga ega.

Darsning oxirida

Bilim olishning muhim sharti motiv (ta'limiy xarakterdagi harakat, faoliyatni tashkil etishga rag'batni his etish, ehtiyojning yuzaga kelishi)dir.


O'qishning keyingi komponenti o'quv harakatlari (operatsiyalari) sanalib, ular anglangan maqsadga binoan amalga oshiriladi. O'quv harakatlari o'quv jarayonini tashkil etishning barcha bosqichlarida namoyon bo'ladi.

Ichki (mnemonik, yunon. "mnemonikon" – eslab qolish madaniyati) harakatlarga materialni eslab qolish, uni tartibga solish va tashkil etish, shuningdek, tasavvur va fikrlash harakatlari kiradi.

Har qanday bilimni o'zlashtirishda o'quvchilardan idrok etish madaniyatiga ega bo'lish va o'quv materialini anglab etish talab etiladi.

Bilimlarni o'zlashtirish jarayonining tuzilishi. O'quvchilarning o'quv faoliyatlarini samarali boshqarish uchun bilimlarni o'zlashtirish jarayonining mohiyati hamda bilimlarning egallash bosqichlaridan etarlicha xabardor bo'lish.

Bilimlarni egallahda o'zlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar bosqichma-bosqich boyib va mustahkamlanib boradi. Bu holat bilimlarni egallahning dinamik xarakterini ifodalaydi. Jarayonni sxema yordamida quyidagicha ifodalash mumkin:



1-bosqich: idrok etish (aniq maqsadga yo'naltirilgan anglash jarayoni) bo'lib, u tanlash xususiyatiga ega. Shu bois o'quvchilarga mavzuni, ya'ni, ularning nimani o'rganishlari (masalani qo'yish)ni tushuntirib berish orqali o'quv materiali bilan dastlabki tanishish amalga oshiriladi.

2-bosqich: o'quv materialini anglab etish bo'lib, u ma'lumotlarning nazariy jihatlarini ajratib olish va tahlil qilishdan iborat. Bunda asosiy mazmunni topish, tushunchani ajratib olish, ularning belgilarini asoslab berish, tushuntirish materialning xususiyatini aniqlab olish, misollar va tushuntiruvchi dalillar to'plamini o'rganib chiqishi kerak.

3-bosqich: eslab qolish va mustahkamlash bo'lib, o'zlashtirilgan bilimlarni uzoq vaqt davomida saqlab qolishdan iborat. Unda idrok etish faoliyati ko'proq mashqlar, mustaqil va ijodiy masalalar xususiyatiga ega bo'ladi. Bosqich yakunida o'quvchilar nazariy materiallarni biladilar va ulardan mashqlarni bajarish, masalani echish, teoremani isbotlashda foydalanishni biladilar (amaliy ko'nikma, malakalar shakllanadi).

4-bosqich: bilimlarni amaliyotda qo'llashdan iborat. Bilimlarni qo'llash o'rganilayotgan materialning mazmuni xususiyatiga qarab faoliyat turli shakl (o'quv mashqlari, laboratoriya ishlari, tadqiqot topshiriqlari, maktab er maydonidagi ishlar)larda amalga oshirilishi mumkin.

Demak, ta'lim jarayoni o'quvchilarga nazariy bilim berish, ularda o'zlashtirigan bilimlarni amaliyotda qo'lash ko'nikma, malakalarini shakllantirishda muhim o'rinn tutadi. Ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlash o'quvchilar tomonidan bilimlarni puxta o'zlashtirilishini ta'minlaydi. Shu sababli o'qituvchilar ta'lim jarayonini samarali tashkil etilishiga muhim ahamiyat qaratishlari lozim.

Fan yuzasidan keyslar to'plami, amaliy topshiriqlar, ishlanmalar
Amaliy mashg'ulotlar uchun ishlanmalar
Mavzu: "Pedagogik qobiliyat" amaliy mashg'ulotining
texnologik modeli

Mashg'ulot vaqtি –2 soat	Talabalar soni - 25
Mashg'ulot shakli	Mavzu bo'yicha bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash yuzasidan amaliy mashg'ulot
Amaliy mashg'ulotning tuzilishi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Talabalarni amaliy mashg'ulotga tayyorlash. 2. Amaliy mashg'ulotdagi masalalar yuzasidan topshiriq. 3. Topshiriqlarning bajarilishini boshqarish. 4. Amaliy mashg'ulot rejasi yuzasidan umumiylar xulosalar qilish 5. Amaliy mashg'ulot mavzusi bo'yicha talabalarning BKM larini baholash
O'quv mashg'ulotining maqsadi: talabalarning mavzuga doir bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash va tizimlashtirish.	
Pedagogik vazifalar:	O'quv faoliyati natijalari:
<ol style="list-style-type: none"> 1. Talabalarning mashg'ulotning maqsad va vazifalari bilan tanishtirish. 2. Mavzu yuzasidan egallanishi lozim bo'lgan bilimlarni tizimlashtirish. 3. Mavzu yuzasidan talabalarda ko'nikma va malakalar hosil qilish. 4. Talabalarning ijodiy va mustaqil fikrlay olish qobiliyatlarini shakllantirish. 	<ol style="list-style-type: none"> 1. Talabalar mavzuning asosiy tushunchalarini o'zlashtiradilar. 2. Mavzuga doir aniq bilimlar doirasiga ega bo'ladilar. 3. Mavjud bilimlar egallaganliklarini taqqoslaydi. 4. Egallangan bilimlardan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'ladilar. 5. Mavzu yuzasidan umumiylar xulosalarga keladilar.
Ta'lim berish usullari:	Tezkor savol-javob, "Aqliy hujum", suhbat, muammoli vaziyat interfaol metodlari
Ta'lim berish shakllari	Ommaviy, guruhlarda ishslash
Ta'lim berish vositalari	Proektor, ma'ruza matni, topshiriqlar
Ta'lim berish sharoiti	Texnik ta'minlangan, guruhlarda ishslash uchun mo'ljallangan auditoriya
Nazorat va baholash	Og'zaki nazorat: savol-javob

**“Pedagogik qobiliyat” amaliy mashg’ulotining
texnologik xaritasi**

Ish bosqichlari va vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	Ta’lim beruvchi	Ta’lim oluvchilar
Tayyorlov bosqichi	<p>Mavzuni aniqlaydi, ta’limiy maqsadni belgilaydi va kutilayotgan natijani shakllantiradi.</p> <p>Belgilangan ta’limiy maqsadlarga mos o’quv bilish topshiriqlarini ishlab chiqadi.(1-ilova)</p> <p>Ekspert guruhlar ish natijalarini baholash mezonlarini ishlab chiqadi (2-ilova)</p>	
1. O’quv mashg’ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqa)	<p>1.1. Mashg’ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalar bilan tanishtiradi, ularning ahamiyatliligini va dolzarbigini asoslaydi.</p> <p>1.2. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarda ta'rif berishni taklif qiladi va shu asosda tezkor so'rov o'tkazib talabalar bilimlarini faollashtiradi. (3-ilova)</p>	Savollarga javob beradilar
2. Asosiy bosqich (55 daqiqa)	<p>2.1. Talabalar guruhlarga bo'linadi va hamkorlik asosida ishlash usuli qoidalari bilan tanishtiradi (4-ilova)</p> <p>2.2. Guruhlarga tayyorlangan topshiriqlar taqsimlanadi (5-ilova)</p> <p>2.3. Guruhlarga topshiriqlarni bajarish uchun yordam beradi.</p> <p>2.4. Guruhlarning topshiriqlarni taqdimotini o'tkazishlarini ta'minlaydi.</p> <p>2.5. “Muammoli vaziyat” uchun muammo matni va ishslash shartini taqdim qilinadi.(6-ilova)</p> <p>2.6. Mavzular asosida berilgan ma'lumotlar umumlashtiriladi va xulosalaydi. Faol ishtirokchi talabalar rag'batlantiriladi va umumiylaholaydi.</p>	Kichik guruhlarga bo'linadilar. Topshiriqlar bo'yicha ishlaydilar, topshiriqlarni bajarish uchun kirishadilar. Berilgan muammoli vaziyatlarni hal etadilar. Savol-javobda qatnashadilar. Tinglaydilar.
3.Yakuniy bosqich (20 daqiqa)	<p>3.1. O’quv faoliyati yuzasidan xulosa bildiradi.</p> <p>3.2. Mavzular maqsadiga erishishdagi talabalar faoliyatini tahlil qiladi va o’zlashtira olmagan joylarini qayta o’qib chiqishini tavsiya etadi</p>	Tinglaydilar

Keyslar to'plami

I. Savolli keyslar

1-keys

XXI asr boshida Rossiya aholisining 3/2 qismi qashshoqlikda yashagan. Shunisi qiziqki, BMT olib borgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra dunyo boyliklarining 50% Rossiyada joylashgan. Qolaversa, Rossiya – ziyolilar yurti bo'lib, butun jahonda oliy va o'rta texnik ma'lumotli mutaxassislar bo'yicha oldingi o'rnlardan birini egallagan (G. "Argumenti i fakti").

Savollar:

1. Muammo nimadan iborat?
2. Mazkur muammoni echishda hukumat qanday ishlar olib bormoqda?
3. Siz bu muammoga qanday echimlar taklif qilasiz?

Manba: shaxs imkoniyatlari va ulardan to'g'ri foydalanishga doir adabiyotlar.

Talabalar uchun ko'rsatmalar:

1. Keys mohiyatini etarlicha anglab oling.
2. Muammoning echimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlang.
3. Aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko'proq dahldor bo'lган omil (yoki ikkita omil)ni ajrating.
4. Ana shu omillar asosida echimni asoslashga harakat qiling.
5. Echimni bayon eting.

Keysni echish jarayoni:

1. Talabalar keys mohiyatini u bilan ikki-uch marta tanishish orqali, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda etarlicha anglab oladi.
2. Talaba sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda muammoning echimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlaydi.
3. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko'proq dahldor bo'lган omil (yoki ikkita omil)ni ajratib oladi.
4. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) echimni ajratib olingen omil (ikkita omil) asosida bayon etadi.
5. Echim individual, kichik guruhlar yoki jamoa ishtirokida muhokama qilinadi.

O'qituvchining echimi

1-omil: Rossiya aholisining aksariyati o'z ichki imkoniyatlarini to'g'ri yo'naltira olmag'an.

2-omil: jamiyat taraqqiyoti moddiy boyliklarning ko'pligi emas, balki ulardan oqilona foydalana olishga imkon beradigan inson salohiyati, qobiliyati va uning ijtimoiy faolligi asosida ta'minlanadi.

Muammo mavjudligining sababi har bir shaxs ham o'zi ega bo'lgan nazariy bilimlarni amaliyotga samarali tatbiq eta olmaydi. Yoki o'z bilimlarini amalda qo'llash borasida etarli darajada faollik ko'rsata olmaydi. Bu esa ta'lim jarayonida o'quvchi va talabalarda nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish ko'nikma, malakalarini shakllantirishga e'tibor qaratishni taqozo etadi.

2-keys

Sobir o'rta maktabning 9-sinfini tamomladi. Shahodatnomasida "uch" baholar ko'p bo'lganligi, salbiy xulqqa egaligi sababli, Sobir hech bir kasb-hunar kollejiga qabul qilinmadi. Har bir kollejning rahbari Sobirni boshqa akademik litsey va kasb-hunar kollejiga kirishini tavsiya etdi. Biroq, Sobirning ota-onasi har gal o'g'illarini o'zлari yashaydigan tumandagi kasb-hunar kollejida ta'lim olishini, shundagina uni nazorat qilib turishlari mumkinligi aytishardi.

Savollar:

1. Ayting-chi, kasb-hunar kollejlarining rahbarlari Sobirni o'qishga qabul qilmaslikka haqlimilar?
2. Sobirnining ota-onalari-chi?
3. Ayni vaziyatda Sobirning qanday huquqlari buzilyapti?

Talabalarga tavsiya etiladigan manbalar:

"Inson huqulari deklaratasiysi", "Bola huquqlari haqida"gi Konvensiya, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.

Talabalar uchun ko'rsatmalar:

1. Keys mohiyatini etarlicha anglab oling.
2. Berilgan manbalarga tayangan holda muammoning echimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlang.
3. Aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko'proq dahldor bo'lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajrating.
4. Ana shu omillar asosida echimni asoslab bering.
5. Echimni bayon eting.

Keysni echish jarayoni:

1. Talabalar keys mohiyatini u bilan ikki-uch marta tanishish orqali, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda etarlicha anglab oladi.

2. Talaba sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda muammoning echimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlaydi.

3. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko'proq dahldor bo'lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajratib oladi.

4. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) echimni ajratib olingen omil (ikkita omil) asosida bayon etadi.

5. Echim individual, kichik guruqlar yoki jamoa ishtirokida muhokama qilinadi.

O'qituvchining echimi

Kasb-hunar kolleji rahbarlari ijtimoiy xavf bo'limgan holda "uch" bahoga o'qiganligi va xulqida salbiy holatlar ko'zga tashlanishi uchungina Sobirni o'qitishga qabul qilmaslikka haqli emaslar. Ular shaxsning bilim olishga bo'lgan huquqini poymol etishgan. Qolaversa, kasb-hunar kollejlarida ta'lim olish majburiy-ixtiyoriy xarakterga ega. Shu sababli Sobir va uning ota-onasi kasb-hunar kollejini o'zlari tanlay oladi.

Bordi-yu, kollejga qabul qilish sinov, imtihonlar asosida olib borilsa va Sobirning o'zi ularga puxta tayyorlanmaganligi sababli sinovdan o'ta olmasa, u holda ana shu kasb-hunar kollejiga qabul qilinmaydi.

Bu vaziyatda Sobirning bilim olish huquqi (O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining 4-moddasi) poymol etganliklari sababli kasb-hunar kollejlarining rahbarlari ma'muriy javobgarlikka tortiladi.

3-keys

Pedagogik kengash yig'ilishida maktab direktori o'qituvchilarning e'tiborlariga quyidagi ma'lumotni aytib o'tdi: 6 nafar ota-onalar tomonidan farzandini ingliz tili chuqurlashtirilib o'tiladigan 5-sinfga qabul qilinishi so'ralgan ariza berildi. Sinfga faqatgina bir nafar o'quvchini qabul qilish imkoniyati bor. Sizlar qanday fikr dasizlar, kimni qabul qilamiz?

Ariza bergen o'quvchilarning ijtimoiy ahvoli va tabaqa lashtirilgan sinfga qabul qilinishni asoslovchi holatlari:

1-o'quvchi: boshqa tumanda istiqomat qiladi, maktab yonida uning buvisi yashaydi, qolaversa, u tabiiy fanlardan a'lo baholarga o'qiydi.

2-o'quvchi: maktab joylashgan hududda istiqomat qiladi, uning mahalladagi barcha do'stlari ana shu sinfda ta'lim olishganligi sababli shu maktabga o'tishga qaror qilgan.

3-o'quvchi: boshqa shahardan kelgan, uning ota-onasi diplomat, shu sababli o'quvchi ingliz tilini mukammal biladi, qolaversa, 3 oydan so'ng ular boshqa davlatga ko'chib ketadi.

4-o'quvchi: ikkinchi yilga qolgan, 4 fanni "qoniqarsiz" bahoga o'zlashtiradi, qolaversa, ichki ishlar bo'limida ro'yxatda turadi, biroq, maktab joylashgan hududda istiqomat qiladi.

5-o'quvchi: qishloqdan ko'chib kelgan, u erdaga mакtabda esa ingliz tili o'qitilmagan, maktab joylashgan hududda istiqomat qiladi, ko'p vaqtini bekor

o'tkazadi.

6-o'quvchi: bolalikdan 2-guruh nogironi, bolalar tselebral paralichi (BTSP) tashxisiga ega, fanlarni "4" va "5" baholarga o'zlashtiradi, yolg'iz onaning qo'lida tarbiyalanadi, shu bilan birga maktab joylashgan hududda istiqomat qiladi.

Sizningcha, ingliz tiliga ixtisoslashtirilgan sinfga qaysi o'quvchi qabul qilinadi?

Talabalarga tavsiya etiladigan manbalar:

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.

O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarni ijtimoiy muhofazalash to'g'risida"gi Qonuni.

Ta'lim muassasalarining "Tabaqalashtirilgan ta'limni tashkil etish to'g'risida"gi Nizomi.

Talabalar uchun ko'rsatmalar:

1. Keys mohiyatini etarlicha anglab oling.

2. Berilgan manbalarga tayangan holda muammoning echimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlang.

3. Aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko'proq dahldor bo'lган omil (yoki ikkita omil)ni ajrating.

4. Ana shu omillar asosida echimni asoslab bering.

5. Echimni bayon eting.

Keysni echish jarayoni:

1. Talabalar keys mohiyatini u bilan ikki-uch marta tanishish orqali, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda etarlicha anglab oladi.

2. Talaba sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda muammoning echimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlaydi.

3. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko'proq dahldor bo'lган omil (yoki ikkita omil)ni ajratib oladi.

4. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) echimni ajratib olingan omil (ikkita omil) asosida bayon etadi.

5. Echim individual, kichik guruhlar yoki jamoa ishtirokida muhokama qilinadi.

O'qituvchining echimi

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi va "Fuqarolarni ijtimoiy muhofazalash to'g'risida"gi Qonunlarida bayon etilgan me'yoriy talablarga muvofiq ingliz tiliga ixtisoslashtirilgan sinfga bolalikdan ikkinchi guruh nogironi bo'lган o'quvchi qabul qilinadi.

4-keys

Bir kuni algebra darsida, - deb o'quvchi qiz hikoya qiladi, - men darsga qulog solmay, hech narsaga e'tibor qilmay, kitob o'qib o'tirgan edim. Birdan o'qituvchi

meni doskaning oldiga chaqirdi. Men buni eshitmadim, ammo orqa partada o'tirgan sinfdoshlarim mening el kamga niqtay boshlashdi. Avval bundan jahlim chiqdim va hech narsaga tushunmay atrofga alanglab qaray boshladim. Butun sinf o'quvchilari mening ustimidan kulishdi. O'qituvchi: "Nima bo'ldi?", deb so'radi. Men xotirjam holda "Bilmadim" dedim va doskaning oldiga chiqdim. O'qituvchining savolari juda yaxshi javob berdim va joyimga o'tirdim. O'qituvchi esa men u to'g'risida sinfdoshlarimga nimadir deganligim uchun ular kulishdi, deb o'yagan bo'lsa kerak, o'sha kundan boshlab menga g'alati qaraydigan bo'ldi. Men ham bolalar nima uchun kulishganligini o'qituvchiga ochiq ayta olmadim va o'qituvchidan qochib yuradigan bo'ldim. Bu holat deyarli bir yil davom etdi. Men algebra fani asoslarini puxta o'zlashtirdim, biroq, bu fandan bo'ladigan darslarga borish men uchun azob bo'ldi".

Savollar:

1. O'qituvchining pedagogik xatosi nimada edi?
2. Bu vaziyatda o'qituvchi qanday yo'l tutishi zarur?

Talabalarga tavsiya etiladigan manbalar:

Pedagogik faoliyat, ta'limni tashkil etish va yosh xususiyatlariga oid manbalar.

Talabalar uchun ko'rsatmalar:

1. Keys mohiyatini etarlicha anglab oling.
2. Berilgan manbalarga tayangan holda muammoning echimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlang.
3. Aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko'proq dahldor bo'lган omil (yoki ikkita omil)ni ajrating.
4. Ana shu omillar asosida echimni asoslashga uring.
5. Echimni bayon eting.

Keysni echish jarayoni:

1. Talabalar keys mohiyatini u bilan ikki-uch marta tanishish orqali, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda etarlicha anglab oladi.
2. Talaba sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda muammoning echimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlaydi.
3. Talaba (juftlik, kichik guruuh, jamoa) aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko'proq dahldor bo'lган omil (yoki ikkita omil)ni ajratib oladi.
4. Talaba (juftlik, kichik guruuh, jamoa) echimni ajratib olingan omil (ikkita omil) asosida bayon etadi.
5. Echim individual, kichik guruhlari yoki jamoa ishtirokida muhokama qilinadi.

O'qituvchining echimi

1. O'qituvchining pedagogik xatosi vaziyatni to'g'ri baholay olmaganligida. Avvalo, yumor yordamida vaziyatni aniqlashtirib olishi zarur edi.

2. Bu vaziyatda o'qituvchi o'quvchilarning kulgusini bartaraf etish uchun insonning diqqati bir ob'ektdan ikkinchi ob'ektga tez ko'chishini, fikrlash tezligi esa optik tezlikka nisbatan sust ekanligini, shu sababli miya tomonidan axborotlarni qabul qilishda ba'zan noqulay holatlar ro'y berishi mumkinligini tushuntirib o'tishi, nima uchun kulgu ko'tarilganligining sababini esa tanaffusda o'quvchi bilan muloqotni tashkil etgan holda aniqlab olishi mumkin edi.

5-keys

Pedagogika bo'yicha yaratilgan adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, ularda "ta'lim jarayoni" tushunchasining mohiyati turlicha yoritilgan.

Ta'lim jarayoni – bu:

1. O'quvchilarga bilimlarni berib, ularda ko'nikma, malakalarni berish orqali u yoki bu darajada ularning o'zlashtirilishini ta'minlash (o'qitish)ga qaratilgan faoliyat.

2. O'quvchilar tomonidan BKMning o'zlashtirilishi (o'qishi)ni ta'minlovchi jarayonini boshqarishga yo'naltirilgan o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati (chunki o'qitish va o'qitish – ta'limning o'zaro aloqador va o'zaro shartlangan tomonlaridir).

3. O'qituvchining o'quvchilar tomonidan BKMni ongli va puxta o'zlashtirilishiga yo'naltirilib, bu jarayonda bilimlarning mustahkamlanishi, aqliy va jismoniy mehnat madaniyati elementlarini o'zlashtirish, dunyoqarashni boyitish va o'quvchilar xulq-atvorining shakllanishini ta'minlovchi rahbarligi va harakatlarining izchilligi.

4. O'quvchilar tomonidan BKMni o'zlashtirish, qobiliyatlarini rivojlantirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga qaratilgan faol bilish faoliyati.

Savollar:

1. Ulardan qaysi biri ta'lim jarayonining mohiyatini to'la yoritadi?

2. Fikringizni qanday asoslaysiz?

Talabalarga tavsiya etiladigan manbalar:

"Pedagogik mahorat" faniga oid bir necha manbalar.

Talabalar uchun ko'rsatmalar:

1. Keys mohiyatini etarlicha anglab oling.

2. Berilgan manbalarga tayangan holda muammoning echimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlang.

3. Aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko'proq dahldor bo'lган omil (yoki ikkita omil)ni ajrating.

4. Ana shu omillar asosida echimni asoslashga uring.

5. Echimni bayon eting.

Keysni echish jarayoni:

1. Talabalar keys mohiyatini u bilan ikki-uch marta tanishish orqali, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda etarlicha anglab oladi.
2. Talaba sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda muammoning echimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlaydi.
3. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko'proq dahldor bo'lган omil (yoki ikkita omil)ni ajratib oladi.
4. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) echimni ajratib olingan omil (ikkita omil) asosida bayon etadi.
5. Echim individual, kichik guruhlar yoki jamoa ishtirokida muhokama qilinadi.

O'qituvchining echimi

1. O'z mohiyatiga ko'ra barcha ta'riflar ham ta'lim jarayonining mohiyatini yoritishga xizmat qiladi. Biroq, har bir fan har bir kategoriya bo'yicha o'zining aniq terminologiyasiga ega bo'lishi, tushunchalar voqeа, hodisa yoki jarayonning umumiy tavsifini, ob'ekt va predmetlarga xos muhim belgilarni yoritishga xizmat qilishi zarur.
2. Keltirilgan ta'riflar asosiy tegishli jarayonga xos umumiyligi tavsiflar negizida tushunchani quyidagicha sharhlash maqsadga muvofiq: Ta'lim jarayoni – o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tashkil etilgan holda ilmiy bilim, ularni amaliyotda qo'llash ko'nikma, malakalarini o'zlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

6-keys

Nodir o'zini o'rtoqlari kutishayotganligi sababli, ko'chaga chiqmoqchi. Dadasi bo'lsa, bunga ruxsat bermayapti. Nodir esa darslarini tayyorlab bo'lганligini aytib ruxsat so'rayapti. Biroq, dadasi kutilmaganda, "Bunday daydi va beboshlар bilan ko'chada tentirab yurgandan ko'ra uyda o'tirib, kitob o'qi!" – dedi.

Savollar:

1. Bu vaziyatda kim haq?
2. Dadasi qanday pedagogik xatoga yo'l qo'ydi?
3. Sizningcha, Nodirning keyingi harakatlari qanday bo'ladi?

Talabalarga tavsiya etiladigan manbalar:

"Pedagogika" va "Psixologiya" ga oid adabiyotlar.

Talabalar uchun ko'rsatmalar:

1. Keys mohiyatini etarlicha anglab oling.

2. Berilgan manbalarga tayangan holda muammoning echimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlang.
3. Aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko'proq dahldor bo'lган omil (yoki ikkita omil)ni ajrating.
4. Ana shu omillar asosida echimni asoslashga uring.
5. Echimni bayon eting.

Keysni echish jarayoni:

1. Talabalar keys mohiyatini u bilan ikki-uch marta tanishish orqali, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda etarlicha anglab oladi.
2. Talaba sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda muammoning echimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlaydi.
3. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko'proq dahldor bo'lган omil (yoki ikkita omil)ni ajratib oladi.
4. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) echimni ajratib olingan omil (ikkita omil) asosida bayon etadi.
5. Echim individual, kichik guruhlar yoki jamoa ishtirokida muhokama qilinadi.

O'qituvchining echimi

Har bir shaxs ijtimoiy, xususan, mikromuhitda shakllanadi va rivojlanadi. Bolalar o'z tengdoshlari bilan muloqot qilish, o'qish, o'ynash, bellashish, baxslashish ehtiyojiga ega. Ular tengdoshlari bilan bo'ladigan munosabatlarda o'zidagi kamchilik va nuqsonlarni sezadi, ularni bartaraf etish haqida o'ylab ko'radi. Tengdoshlarining ta'siri bilan mehnatga munosabatlari shakllanadi. O'smirlar esa deyarli barcha hayotiy vaziyatlarda tengdoshlaridan namuna olishga intilishadi. O'zlari mansub bo'lган muhitda lider bo'lishga harakat qiladi. SHu sababli Nodirning dadasi nohaq.

Dadasi Nodirni kitob o'qishga o'rtoqlarini haqorat qilmagan holda undashi zarur edi. Qolaversa, dadasi o'g'lining o'rtoqlari kimlar ekanligini bilishga intilmagani holda ular haqida noto'g'ri xulosa chiqardi.

Eng to'g'ri yo'l Nodirga ko'chaga chiqishi uchun ruxsat berish, biroq, uzoq qolib ketmasligini eslatib qo'yish, u qaytib kelganidan keyin esa o'rtoqlari kimlar ekanligini, vaqtini tengdoshlari bilan bo'ladigan munosabatlarga ham sarflashi mumkinligini, ammo, ko'proq vaqtini tejashga e'tibor qaratishi zarurligini tushuntirishi lozim.

7-keys

Birinchi sinfda o'qiyotgan Dilshod she'rni ifodali o'qib bergani uchun "besh" baho oldi. O'qituvchi uni buning uchun maqtadi. Dilshod uyga qaytgach, shoshganicha, bu xabarni oyisiga aytdi. U, hatto, o'zi yod olgan she'rni oyisiga ham o'qib bermoqchi bo'ldi. Ammo, oyisi Dilshodning xabarini sovuqqonlik bilan tingladi va o'g'liga qayrilab ham qaramasdan dedi:

- Besh oldingmi? Juda soz, barakalla, - endi ovqat tayyorlashimga xalaqit bermagin-da, o'ynab kel! Dilshod tushlik ham qilmay ko'chaga chiqib ketdi.

Savollar:

1. Vaziyatni qanday baholaysiz?
2. Dilshodning onasi tarbiyaning qaysi tamoyillariga zid ish qildi?
3. SHu kabi vaziyatlar Dilshodning tarbiyasiga qanday ta'sir o'tkazadi.

Talabalarga tavsiya etiladigan manbalar:

"Pedagogika" va "Psixologiya"ga oid adabiyotlar.

Talabalar uchun ko'rsatmalar:

1. Keys mohiyatini etarlicha anglab oling.
2. Berilgan manbalarga tayangan holda muammoning echimini topishga xizmat qiluvchi tarbiya tamoyillarini aniqlang.
3. Aniqlangan tarbiya tamoyillari orasidan muammoga barchasidan ko'proq dahldor bo'lган, eng muhim tamoyil (yoki ikkita tamoyil)ni ajrating.
